

Uylanish



15:00 / 05.12.2021 10109

Muso qizlarnikida katta hurmat-izzat ko'rdi. Ular bu g'arib yigitni xuddi o'z farzandlaridek ko'rib izzat-ikrom qilishdi.

Kunlarning birida qiz otasi huzuriga kelib ma'sumalik bilan shunday dedi:

- «**Ey ota, uni (ishga) yollagin. Zero, sen yollagan eng yaxshi kishi kuchli, ishonchli kishidir**».

Chol dedi:

- Ey qizim! Uning kuchli hamda ishonchli ekanligini sen qaerdan bilasan?

- U odamlar bir necha kishilashib ko'taradigan quduq qopqog'ini bir o'zi ko'tarib qo'ydi. Shundan bildimki, u juda kuchli yigit. Endi ishonchligiga kelsak, uni chaqirib kelayotganimda oldinda yurdi va yo'l bo'yi biron marta menga qaragani

yo'q. Yollangan ishchi va xizmatkor kuchli va omonatdor bo'lmog'i shart. Chunki zaif xizmatkor yaxshi ishlay olmaydi. Sadoqatsiz xizmatkor esa kuchli bo'lsa ham xiyonati sababli xojasiga zarar yetkazadi.

Qizining taklifi otasining ham ko'nglidan o'tgandi. Lekin u masalaga ota sifatida, ko'pni ko'rgan oqil keksa kishi sifatida yondoshardi.

Chol o'z-o'ziga dedi:

«Mana shu yigitni o'zimga kuyov qilib olsam-chi?! Axir undan munosibroq yigitni yana qaerdan topaman. Madyanda unga ahl bo'ladigan biror kishini bilmayman! Shoyad Alloh menga uni kuyov va ko'makchi bo'lsin, deb yuborgan

bo'lsa!»

Chol viqor, mehribonlik va hikmat ila so'z boshladi. «(Ey Muso, agar rozi bo'lsang) **menga sakkiz yil ishlab berishing badaliga men senga mana shu ikki qizimdan birini nikohlab bermoqchiman**». Mana shu sening mahring bo'ladi. Ammo sakkiz yil ishlab berishing shartdir.

Endi, agar o'n yilni to'latsang (ya'ni to'liq o'n yil ishlab bersang) **sen tomoningdan** (bizga marhamat bo'lur). **Men seni qiynashni istamayman. Inshaalloh, sen mening solih kishilardan ekanligimni ko'rursan**».

Yigit qizini olib ketgach, chol o'zining yolg'iz qolib ketishidan cho'chidi. U Musoni yaxshilab bilib olmoq niyatida edi. Qachon xotirjam bo'lsa shundagina topshirar edi.

Muso bunga rozi bo'ldi va buni Alloh tomonidan deb bildi.

Albatta Alloh bunda uning uchun baraka beradi. Alloh taolo Musoni Madyanga, bu nuroniy keksaga o'zi yetkazdi.

Uning qalbida bu g'arib yigitga nisbatan muhabbat va mehribonlik uyg'otdi.

«(Muso) **dedi: «Mana shu sen bilan mening o'rtamizdagi** (bitimdir)».

Muso cholning taklifiga rozi bo'ldi. U o'z haqqini muhofaza qilish niyatida aql va hikmat bilan shunday dedi.

«Ikki muddatdan qay birini ado qilsam bas, menga zo'rlik qilinmas. Alloh aytayotgan so'zimizga guvohdir».

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

